

INGLIZ TILINING GLOBAL TIL SIFATIDA USTUNLIGI VA UNING OQIBATLARI

Xolmurodova Ruxshonabonu Dilmurodovna

O'zDJTU Filologiya va tillarni o'qitish (Turk tili) fakulteti 1-bosqich talabasi
xolmurodovaruxshonabonu@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilining global til sifatida rivojlanish sabablari va uning jamiyat hayotiga ta'siri yoritiladi. Xususan, qanday omillar ingliz tilini jahon miqyosida keng rivojlanishiga sabab bo'lgani ochib beriladi. Shunday ustunliklar bilan birga ingliz tili qanday ma'daniy ta'sirlar va kichik muammolarga sabab bo'layotganligi batafsil yoritiladi. Tadqiqot natijalari ingliz tilini global ustunliklarini tan olgan holda, boshqa milliy tillarni ham saqlash kerakligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlari: Ingliz tili, ona tili, globallashtiruv, turizm, iqtisodiyot, siyosat, texnologik rivojlanish, forum, madaniyat, investorlar, investitsiya, biznes, kompaniya, jurnal, soha, umumiy til, tabiiy, shifokor

Abstract. This article discusses the reasons for the development of English as a global language and its impact on social life. In particular, it reveals what factors have led to the widespread development of English on a global scale. Along with these advantages, it also discusses in detail what cultural influences and minor problems English causes. The results of the study emphasize the need to preserve other national languages, recognizing the global advantages of English.

Keywords: English, native language, globalization, tourism, economy, politics, technological development, forum, culture, investors, investment, business, company, magazine, field, common language, medical, doctor

Аннотация. В данной статье рассматриваются причины развития английского языка как глобального языка и его влияние на общественную жизнь. В частности, раскрываются факторы, приведшие к широкому распространению английского языка в глобальном масштабе. Наряду с такими преимуществами, подробно обсуждаются культурные влияния и незначительные проблемы, связанные с английским языком. Результаты исследования подчеркивают необходимость сохранения других национальных языков, признавая глобальные преимущества английского языка.

Ключевые слова: английский, родной язык, глобализация, туризм, экономика, политика, технологическое развитие, форум, культура, инвесторы, инвестиции, бизнес, компания, журнал, поле, общий язык, медицина, врач

Kirish. Bugungi kunda ingliz tili dunyoda eng keng tarqalgan, eng ko'p ishlatiladigan tillaridan biri hisoblanadi. Ingliz tili bugungi kunda xalqaro muloqot, biznes, ilm-fan va texnologiyalar sohasida lingua franca (umumiy til) maqomiga ega bo'lgan va hozirgi ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda ingliz tilini ona tili sifatida gapiradiganlar 5-6% , ikkinchi til sifatida biladiganlar 20-25% atrofida. Uning global til sifatida ustunlikka ega bo'lishi bir necha muhim omillar bilan bog'liq.

Asosiy qism. Avvalo, globalizatsiya jarayoni davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni kuchaytirdi. Natijada, umumiy aloqa vositasi sifatida ingliz tiliga bo'lgan ehtiyoj oshdi.

Masalan, "English as a Global Language" asarida: "Til haqiqiy global maqomga ega bo'ladi, agar u har bir mamlakatda tan olingan alohida rolga ega bo'lsa", degan

fikrga duch kelamiz. Ingliz tilini bunga yaqqol misol qilib olsak bo'ladi. Negaki, ingliz tili ko'plab davlatlarning turizmi, siyosati va ta'limida alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, 2025-yil Toshkentda o'tkazilgan "Toshkent International Investment Forum 2025" asosan ingliz tilida o'tkazilgan. Forumda xorijiy investorlar, kompaniyalar va hukumat vakillari tomonidan biznes, investitsiya va iqtisodiyot sohalari borasida muhokamalar o'tkazilgan.

"The Future of English?" asarida esa: "Ingliz tilining butun dunyo bo'ylab tarqalishi iqtisodiy globallashuv, texnologik rivojlanish va xalqaro aloqa ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liq", degan qarashga duch kelamiz. Bundan ko'rinib turibdiki, ingliz tili yuqoridagi 3ta sohada ham alohida ahamiyatga ega. Masalan, davlatlar o'rtasida tashkillashtirilayotgan uchrashuvlarning ko'p qismi ingliz tilida amalga oshirilmoqda va internet, ijtimoiy tarmoqlar va zamonaviy texnologiyalarning katta qismi mazkur tilda faoliyat yuritmoqda. Jumladan, dunyodagi veb-saytlar va onlayn ma'lumotlarning 50% dan ortig'i ingliz tilida yaratilgan hamda ko'pchilik dasturlash tillari, masalan, Python, Java, C++ ingliz tilidagi so'zlar orqali yaratilgan. Bulardan tashqari, hozirgi nashrdan chiqarilayotgan ilmiy maqolalarning 80-90%i, xalqaro ilmiy jurnallarning esa 90% dan ortig'i ingliz tilida nashr qilinmoqda. Bunga 1869-yil nashrdan chiqarila boshlangan, tabiiy fanlar sohasidagi eng muhim va yangi ma'lumotlar chop etiladigan "Nature" jurnalini va 1823-yil nashr qilina boshlagan, shifokor va olimlar uchun muhim manba hisoblangan, qolaversa, "COVID-19" davrida muhim ilmiy maqolalar chiqqan "The Lancet" jurnalini misol qilib kiritsak bo'ladi.

Bulardan shuni anglashimiz kerakki, bu holatlar ingliz tili har xil soha vakillari o'rganishi lozim bo'lgan tilga aylanib qolayotganligida darak bermoqda. "Global Englishes" asarida keltirilgan: "Bugungi kunda ingliz tili turli ona tiliga ega bo'lgan odamlar o'rtasida umumiy aloqa tili sifatida ishlatiladi", degan qarashdan esa shuni tushinish mumkin, ingliz tili ko'plab xalqlarning ona tilisi ustidan hukmdorlikka chiqqan til hisoblanmoqda. Bu holat esa ba'zi salbiy oqibatlariga olib kelmoqda. Masalan, kichik va kam sonli tillarning yo'qolib borishiga va ba'zi hollarda milliy madaniyat va an'analarga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin.

"Ingliz tilini lingvistik imperializmi – bu ingliz tilining ustunligi bo'lib, u ijtimoiy va madaniy tengsizliklar orqali mustahkamlanadi", degan qarash keltirilgan "Linguistic Imperialism" asari ham ingliz tilining rivojlanib borayotganligi til tengsizligi degan muammoni yuzaga keltirayotganini ta'kidlaydi. Ya'ni, ingliz tilini yaxshi biladigan insonlar bilmaydiganlarga qaraganda ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ladi, bilmaydiganlar esa har xil cheklovlariga duch keladi. Bu holat esa yuqoridagi muammoni kattalashib ketishiga birlamchi omil bo'lib qoladi

Demak, ingliz tili nafaqat global aloqa vositasi qolaversa, ilm – fan va texnologiyada asosiy yordamchi vosita bo'lib kelishi bilan birga jamiyatda ijtimoiy va madaniy nomutanosibliklarga sababchi bo'lib qolishi ham mumkin.

Xulosa. Muxtasar qilib aytganda, kundan kun yoshlar o'rtasida jadal rivojlanib borayotgan ingliz tili global ahamiyatga ega bo'lsada, uning ta'sirini to'g'ri idora qilish eng muhimidir. Har bir davlat o'z ona tili bo'lmish milliy tilini kengroq rivojlantirishga e'tibor qaratishi va uni biror til ustunligi ortidan yo'qolib ketmasligi uchun qattiq harakat qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. David Crystal (2003). English as a global language (2nd ed., pp. 10–20). Cambridge University Press.
2. David Graddol (1997). The future of English? (pp. 15–25). British Council.
3. Robert Phillipson (1992). Linguistic imperialism (pp. 50–60). Oxford University Press.
4. Jennifer Jenkins (2015). Global Englishes (pp. 20–30). Routledge.